“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=341

2025-yil
5-son
dekabr
ISSN 3093-8546



Televideniyening siyosiy ong va madaniyatni shakllantirishdagi roli

Dilnoza Miralimova,,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
2-kurs magistranti
e-mail: dilnozamiralimova09@gmail.com

Аннотация. Mazkur maqolada bugungi zamonaviy televideniyening jamiyat hayotida siyosiy ong va madaniyatni shakllantirishdagi roli tadqiq etiladi.Televideniye orqali siyosiy bilim va ko‘nikmalarning mavzuga oid dasturlar yordamida rivojlantirilishi hamda siyosiy madaniyatning odamlarda davlatga bo‘lgan munosabatini shakllantirishga qaratilgani, siyosatga bag‘ishlangan teleko‘rsatuvlarning soni ko‘p bo‘lsa odamlarda siyosiy madaniyatining shakllanishi va milliy televideniyeda xalq an'analari, ma'naviy qadriyatlar, madaniy merosni targ‘ib qiluvchi ko‘rsatuvlar ham siyosiy madaniyatningo‘ziga xos shakli sifatidagi ahamiyati. Ommaviy axborot vositalari auditoriyaning o‘ziga xos tarbiyachisi, muhim tadbirlarning tashkilotchisi, dolzarb muammolarni hal qilishning ta'sirchan quroli bo‘lib xizmat qilishi xaqida bayon etiladi.

Калит сўзлар. Davlat, jamiyat, siyosat, global, madaniyat, OAV, media, telekanal, axborot.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль современного телевидения в формировании политического сознания и культуры в жизни общества. Развитие политических знаний и навыков посредством телевидения через тематические программы, а также то, что политическая культура направлена на формирование отношения людей к государству, чем больше телепередач, посвященных политике, тем в большей степени формируется политическая культура у людей, и важность программ, пропагандирующих народные традиции, духовные ценности и культурное наследие на национальном телевидении как особой формы политической культуры. Средства массовой информации выступают особым воспитателем аудитории, организатором важных мероприятий и эффективным инструментом решения насущных проблем.

Ключевые слова. государство, общество, политика, глобальный, культура, СМИ, телеканал, информация.

Annotation. This article examines the role of modern television in the formation of political consciousness and culture in the life of society. The

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

development of political knowledge and skills through television through thematic programs, as well as the fact that political culture is aimed at forming people's attitudes towards the state, the greater the number of TV programs devoted to politics, the greater the formation of political culture in people, and the importance of programs promoting folk traditions, spiritual values, and cultural heritage on national television as a special form of political culture. “The mass media serve as a special educator of the audience, an organizer of important events, and an effective tool for solving urgent problems.

Keywords. State, society, politics, global, culture, media, TV channel, information.

Ma'lumki, televideniye ommaviy axborot vositalari orasida axborot yetkazishning eng samarali vositasi bo‘lib hisoblanadi. Axborot-targ‘ibot jarayonida u insonning dunyoqarashi, siyosiy pozitsiyasi va faol fuqarolik munosabatini shakllantiruvchi muhim vosita hamdir. Siyosiy ong va madaniyat jamiyatdagi barqarorlikni ta'minlash hamda demokratiyani rivojlantirishning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda media sohasidagi islohotlar, axborot ochiqligi va so‘z erkinligiga berilgan kafolatlar televideniyening mavqeini yanada mustahkamlashga xizmat qildi. Ayniqsa, telekanallarning o‘z teledasturlari orqali davlatimiz siyosatiga oid yangiliklar, muhim voqea-hodisalar haqida xolis ma'lumot berishi yurtdoshlarimizning siyosiy savodxonligi oshishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatayotgani buning yaqqol dalilidir.

“Televideniye – ommaviy axborot va targ‘ibotning nisbatan yangi shakli sifatida maydonga chiqqan, jamoatchilik fikrini shakllantirish va ma'rifat tarqatishning g‘oyat ta'sirchan, qudratli vositasidir”. Bu fikr televideniyening bugungi va ertangi rivojiga yorqin misol bo‘la oladi.

Televideniyening jamiyat hayotidagi yana bir muhim vazifasi – siyosiy kommunikatsiya vositasi ekanligidir. Aynan u keng ommaga mamlakatda kechayotgan siyosiy jarayonlar va yangiliklarni yetkazish orqali davlat va fuqarolar o‘rtasida siyosiy axborot almashinuvini ta'minlaydi. Bunga bahs-munozaralarga boy turli tok-shoular, tahliliy va yirik televizion loyihalar misol bo‘la oladi. Teletomoshabinlar va dastur ishtirokchilari bunday ko‘rsatuvlar orqali bir necha xil nuqtayi nazarlarni tahlil qilishni o‘rganadilar.

Siyosiy kommunikatsiya yordamida televideniye bir vaqtning o‘zida ham axborot beradi, ham auditoriya fikrini shakllantiradi. Televideniyeda namoyish etiladigan siyosiy mavzudagi ko‘rsatuvlar, axborot dasturlari, savol-javob va bahs-munozaralar auditoriyaning siyosiy ongiga bevosita ta'sir ko‘rsatadi. Masalan, saylov jarayonlarining yoritilishi teletomoshabinlarga voqealarni kuzatish va ularda ishtirok etish imkonini beradi. Ular vaziyatni ko‘radi, tahlil qiladi va bevosita fikr bildiradi. Shu jihatdan televideniye yoshlarning siyosiy ongini rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

“Siyosiy ong deganda dolzarb siyosiy mazmunga ega bo‘lgan va muayyan siyosiy oqibatlarga olib keladigan masalalarga nisbatan jamiyatning ommaviy ongi tushuniladi”. Televideniyening yana bir jihati shundaki, u ko‘rish va eshitish orqali qabul qilinadigan san'at turidir. Siyosiy mavzudagi dasturlar avvalo tasvirlar orqali idrok etiladi, so‘ng musiqa va maxsus effektlar o‘z ta'sirini ko‘rsatadi. Zamonaviy televideniyeda so‘nggi rusumdagi texnikalardan foydalanilishi uning ta'sir kuchini yanada oshirmoqda.

“Televideniyeni siyosiy ongni shakllantirishning asosiy vositasi sifatida baholashda, uning boshqa ommaviy axborot vositalariga nisbatan auditoriya qamrovi jihatidan ustun ekanligi e'tiborga loyiq. Bu ustunlik, avvalo, televideniyening axborot kanali sifatida umumiy va bepul mavjudligi, shuningdek, uni axborotning asosiy manbai sifatida iste'mol qilish darajasining yosh omillari bilan bog‘liqligida namoyon bo‘ladi”.

Televideniye faoliyatini boshlagan ilk davrdanoq auditoriya fikrini shakllantiruvchi muhim institut sifatida namoyon bo‘lib kelmoqda. Internetning ijtimoiy ahamiyati ortib borayotganiga qaramay, televideniye xolis axborot tarqatuvchi va siyosiy jarayonlarga faol ta'sir ko‘rsatuvchi kuch sifatida siyosiy ong hamda siyosiy madaniyatni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

“Siyosiy madaniyat – umumiy madaniyatning muhim turi bo‘lib, jamiyat a'zolari, millat, ijtimoiy guruhlar va qatlamlar hamda har bir fuqaroning davlatning ichki va tashqi siyosatini tushuna bilish, uni tahlil qilish va siyosiy vaziyatga qarab mustaqil ravishda o‘z xatti-harakatlarini belgilash hamda amalga oshirish madaniyatidir”. Bugungi kunda xalqimizning siyosiy jarayonlardagi faolligi mamlakatimizda o‘tkazilayotgan saylovlar misolida yaqqol ko‘rinadi. Har bir fuqaroning bu jarayonlarda ishtirok etishida, munosib deb topgan nomzodga ovoz berishida televideniyening o‘rni beqiyosdir.

Televideniye siyosiy bilim va ko‘nikmalarni mavzuga oid dasturlar orqali rivojlantiradi. Siyosiy madaniyat – odamlarning davlat va jamiyat hayotiga bo‘lgan munosabatidir. Siyosatga bag‘ishlangan teleko‘rsatuvlar qanchalik ko‘p bo‘lsa, jamiyatda siyosiy madaniyat shunchalik yuksaladi. Bunda nafaqat siyosiy, balki milliy televideniyeda xalq an'analari, ma'naviy qadriyatlar va madaniy merosni targ‘ib qiluvchi ko‘rsatuvlar ham muhim omil hisoblanadi.

“Ommaviy axborot vositalari ommaning o‘ziga xos tarbiyachisi, muhim tadbirlarning tashkilotchisi hamda dolzarb muammolarni hal etishning ta'sirchan quroli bo‘lib xizmat qiladi. Aynan ommaviy axborot vositalari orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy g‘oya hamda demokratik tamoyillar targ‘ib etiladi”.

Bugungi globallashuv davrida auditoriya tarbiyasi va ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko‘rsatadigan mavzulardan tiyilish muhimdir. Ayniqsa, yosh avlodni axborot xurujlari, yot g‘oyalar va tahlikali mavzulardan himoya qilish televideniye oldidagi dolzarb vazifalardan biridir.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Teleko‘rsatuvlarda ko‘tarilayotgan mavzular jamiyatda yashayotgan xalq va millatning qadriyatlari, huquqlari, erkinliklari, sha'ni, e'tiqodi, urf-odat va an'analariga hurmat ruhida yoritilishi zarur. Tabiiyki, bu jarayonda aholining, ayniqsa, yoshlarning ma'naviy, axloqiy va tarbiyaviy jihatlariga ustuvor ahamiyat beriladi.

Teleko‘rsatuvlarning bosh g‘oyasi mamlakatda amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlarni teletomoshabinlarga yetkazish, shu bilan birga milliy qadriyatlar va an'analarni targ‘ib qilishdan iborat. B. To‘ychiyev va B. Omonovning “Siyosiy madaniyat” nomli monografiyasida ham bu borada shunday fikrlar bildiriladi: globallashuv sharoitida axborot qudratli qurolga aylanib, inson ongiga ta'sir ko‘rsatish vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda”.

Xulosa qilib aytganda, televideniye – axborot, ma'naviyat va madaniyat maydoni bo‘lib, inson ongi va dunyoqarashiga kuchli ta'sir ko‘rsatuvchi eng muhim ommaviy axborot vositasidir. Shu jihatdan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi tomonidan yo‘lga qo‘yilgan telekanallar orqali aholi o‘rtasida siyosiy va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga salmoqli hissa qo‘shilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Qozoqboyev T., Xudoyqulov M. Jurnalistikaga kirish – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2018. – B. 81.

2. Abduazimova N. Milliy jurnalistika tarixi. II jild. – Toshkent, 2008 – B. 58.

3. Rasulov A. Scientific progress. Volume 3/issue 4/2022.

4. To‘ychiyev B., Omonov B. Siyosiy madaniyat. Monografiya. – Toshkent, 2024 – B. 74.

5. To‘ychiyev B., Omonov B. Siyosiy madaniyat. Monografiya. – Toshkent, 2024 – B. 59.

6. Коммуникология: электронный научный журнал. Том 4. №4.

7. Стерлигова Н.А. Тамбовский государственный университет имени Г.Р. Державина.